



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 6 (8)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 6-son 2026 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

6

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Karabayev R.Z. Raqamli iqtisodiyot: nazariy asoslari va O‘zbekistonda rivojlanish yo‘nalishlari.....	8
Ubaydullayeva N.A. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda kichik biznes korxonalarining rivojlanish strategiyalari: nazariy yondashuvlar.....	11
Xatamov A.A. Raqamli transformatsiya asosida ixtisoslashtirilgan savdo majmualarida moliyaviy resurslarni boshqarishni takomillashtirish.....	15
Yokubjonova X.Yo. Co-marketing strategiyasining ekoturizmni brendlashiga integratsiyasi: metodologik yondashuv va amaliy natijalar.....	19
Yusupova M.B., Jamoliddinova (Usmonova) S.S. Ustama xarajatlarni tasniflash va uning mahsulot tannarxini shakllantirishdagi ahamiyati.....	24
Abdug‘ofurova O.M., Yusupova M.B. Ishlab chiqarish korxonalarida tannarxni kalkulyatsiya qilish va uni takomillashtirish yo‘llari.....	27
Xojiboyev M.Sh. Xorijiy tajribalarni O‘zbekiston nodavlat oliy ta’lim muassasalari boshqaruv hisobi tizimiga moslashtirish: nazariy asoslar va amaliy istiqbollari.....	31
Исраилова Д.К. Глобализация в условиях демографического кризиса: социально-экономические риски.....	38
Qurbonova X.I. Bozor iqtisodiyotida davlatning makroiqtisodiy muvozanatni ta’minlash va inqirozga qarshi siyosati.....	43
Asqarov A.H. Oliy o‘quv yurti talabalarida moliyaviy savodxonlikni aniqlash me’zonlari (noiqtisodiy yo‘nalishi talabalar misolida).....	47
Yunusova S.A., Turg‘unboyev A.A. Eko-mehmonxona tushunchasi, turlari va asosiy xususiyatlari.....	51
Barnayev Z.Sh. Xizmat ko‘rsatish sohasi korxonalari raqobatbardoshligining mazmun-mohiyati va xususiyatlari.....	55
Bobokulov A.A. Erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarining hududiy iqtisodiy integratsiyaga ta’siri.....	59
Рахимжонов Б.Б., Рахимжонов Б.Б. Инновационные процессы как фактор развития промышленных предприятий.....	63
Matmusayev M.O. Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish strategiyalari.....	67
Raxmatjonova G.E. Ishlab chiqarish korxonalarining asosiy vositalari buxgalteriya hisobini xalqaro andozalar talablari bo‘yicha takomillashtirish.....	72
Kamoldinova N.A. Ayollar tadbirkorligi faoliyatida raqamli integratsiya darajasini baholash.....	76
Xaitova M.K. Raqamli platformalar orqali biznes modellarini yangilash va kompaniyalar strategik imkoniyatlarini kengaytirish.....	81
Yo‘ldashev M., Sotvoldiyev U. Davlat byudjetini taqchilligi va uni kamaytirish mexanizmlari.....	85
Maribjonov B.I., Arabboyev J.S. Tuman mahalliy byudjetidan moliyalashtiriladigan maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlarining 4-guruh xarajatlarining tahlili.....	88
Ro‘ziyev Sh.Sh. Hududiy iqtisodiy rivojlanishda mahalliy ishlab chiqarishni boshqarishning zamonaviy usullari.....	92
Nematov G‘.G‘., Sotvoldiyev U.K. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tishning iqtisodiy asoslari va istiqbollari: deкупpling indeksi tahlili.....	95
Karimov D.M., Mustafayeva H. Xorij tajribasi asosida O‘zbekistonda pensiya tizimini takomillashtirish....	99
Ermatova S.I. Sanoat korxonalarida majburiyatlar tarkibi va moliyaviy barqarorlikning empirik tahlili (Andijon viloyati to‘qimachilik korxonalari misolida).....	104
Ermatov M.S. Sun’iy intellekt va mehnat bozorida raqamli inqilob: tahdidmi yoki kelajak imkoniyatimi?....	107
Azizova H.A. Raqamli transformatsiya sharoitida sanoat korxonalarining investitsion-innovatsion faoliyatini takomillashtirish yo‘llari.....	111
Юсупов А.С., Джангабаева Г.П. Международный рынок акций: содержание, виды и особенности..	114
Xusanova Z.R. Andijon viloyatida ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi va uning xususiyatlari.....	119
Abdulazizov A.A. Energetika tarmog‘i korxonalarida ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanishning nazariy asoslari.....	122
Norov A.E., Fazliddinov Sh.Sh., Erkinov X.X. Liderlik va motivatsiya o‘rtasidagi munosabatga ta’sir etuvchi omillar.....	126
Атаханова Ш.С., Мирхамидова Д.Н. Цифровая трансформация как инструмент достижения ESG-целей в нефтегазовой сфере Республики Узбекистан.....	131
Toxirov J.R. Mijozlarga yo‘naltirilgan raqamli marketing asosida savdo xizmatlarini modernizatsiya qilish.	136

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 6-son 2026 yil

Sulaymonova F., Ro‘zimov B. Online ta’lim xizmatlari bozorining kengayishi natijasida an’anaviy ta’lim sektorida yuz berayotgan iqtisodiy o‘zgarishlar.....	140
Zayavitdinova N.M. Hududda xizmat ko‘rsatish korxonalari faoliyatini boshqarish strategiyasini takomillashtirish.....	143
Odilova M.A. Kimyo sanoatidagi korxonalar faoliyatida resurslardan samarali foydalanish.....	147
Axmedova D.N. Mintaqaviy raqamli tayyorlik indeksining hududiy iqtisodiy o‘lishga ta’siri.....	151
Sapayeva N.K. O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatida yashil transformatsiya va B2B raqamli marketing asosida barqaror rivojlanish modeli.....	155
Allayarov S. Startup financing mechanisms: a comparative analysis of angel investment, venture capital, bank lending, and state grants.....	158
Махмудов О.Х. Moliya tizimining boshqa iqtisodiy tizimlar bilan aloqadorligi.....	162
Ibragimova M.M. “Yashil iqtisodiyot” va “Yashil tadbirkorlik” tushunchalarining iqtisodiy mazmuni va evolyusion transformatsiyasi.....	167
Olimjonov A. Korxona faoliyatining samaradorligini oshirishda moliyaviy barqarorlik va rentabellik ko‘rsatkichlari o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilish.....	171
Rakhimboeva B.D. Analysis of the economic situation of the development of export activities of small businesses in Uzbekistan.....	174
Raxmatova F.Y. To‘qimachilik korxonalarida aylanma iqtisodiyot modelini joriy etishning iqtisodiy mexanizmlari.....	178
Ergasheva A.F. Milliy hunarmandchilik mahsulotlarini brendlash va bozorda pozitsiyalashning strategik yondashuvlari.....	181
Navruzova G.U. Theoretical models and institutional mechanisms, forms and structures of cooperation between education and manufacture.....	184
Djumayeva S.K. Yashil investitsiya muhitini shakllantirishda raqamli iqtisodiyotning makroiqtisodiy ta’siri (O‘zbekiston hududlari misolida).....	188
Pardayev TN., Muqimov A.R. Boymirzayev K.M. Jismoniy shaxslar tomonidan olib kiriladigan tovarlardan bojxona to‘lovlarini undirishni takomillashtirish.....	193
Ибодуллоева З.С. Экономические стимулы внедрения водосберегающих технологий в аграрном секторе Узбекистана.....	199
Ibragimova G.S. Ta’lim sifatini yaxshilashda innovatsion yondashuvlar va raqamli vositalar.....	203
Raxmatova S.S. Turizmni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning o‘ziga xos xususiyatlari.....	207
Umarova M.M. Foreign brand spillovers and export performance of smes in emerging economies: a panel data analysis.....	212
Karimova F.A. Ekoturizmni barqaror rivojlantirishning xorijiy tajribasi va ularni O‘zbekistonda qo‘llash imkoniyatlari.....	217
Raxmanov B.I. Investitsiya siyosatini amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish.....	221
Ashurova G.N. Charm-poyabzal sanoati korxonalarida sifatni boshqarish tizimini takomillashtirish yo‘llari.....	225
Axmadjanov I.I. Shaharlar va shahar aglomeratsiyalari mintaqalar va mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining drayveri.....	228
Эгамназарова Г.Ш. Рақамли тенгсизлик: давлатлар ва тармоқлар ўртасидаги технологик узилишларни камайтириш йўллари.....	232
Mamanazarov M.A. Iqtisodiy o‘lishni rag‘batlantirishda milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning xorij tajribasi.....	236
Химматов А.Х. Йўл корхоналарини хусусийлаштиришнинг афзалликлари ва оқибатлари.....	241
Kambaraliyeva I.S. Raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat bozorining transformatsiyasi va raqamli ko‘nikmalarning ahamiyati.....	244
Muxiddinov T.Sh. Jizzax viloyatida turizm infratuzilmasini rivojlantirish yo‘nalishlari.....	248
Sayxdodjayeva N.I. Ijtimoiy va ekologik audit: barqaror rivojlanishni ta’minlashda zamonaviy nazorat mexanizmi.....	253
Fayzullayev J.N. Milliy iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning xorijiy tajribalari.....	257
Tursunova N.X. «Xayot sug‘urtasining iqtisodiy mohiyati va uning aholi moliyaviy xavfsizligini ta’minlashdagi roli».....	261
Abdishukurova G.M., Bozorboyev A.R. Sug‘urta kompaniyasi balansini “Risk tetraedri” modeli asosida baholash.....	266
Abdurasulova M.O. Zamonaviy iqtisodiyot nazariyasi asoschilari.....	270

Vaxidov A. Buxgalteriya hisobining tarkibiy tuzilishi - moliyaviy va boshqaruv hisobi.....	273
Turg‘unova T., Muftaydinov Q. Iqtisodiy zonalarda ekologik tadbirkorlikni investitsion va innovatsion qo‘llab-quvvatlashning xorijiy tajribalari.....	277
Kurbanov F.U. Raqamli iqtisodiyotning moliyaviy xizmatlar bozoriga ta’siri.....	283
Umarov T.S. Qurilish sanoati korxonalari iqtisodiy barqarorligini statistik baholashning nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirish.....	287
Rahimova N.A. Kichik biznes subyektlarida inson resurslarini boshqarish tizimidagi muammolari va ularni bartaraf etishda zamonaviy yondashuvlar.....	291
Yangiboyev U.A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy menejment tizimini takomillashtirishning nazariy-uslubiy asoslari va amaliy yo‘nalishlari.....	295
Махкамова Н.С. Роль зеленых облигации в финансировании проектов устойчивого развития.....	299
To‘xtarova F.Y. Analysis of tourism insurance practices and their economic efficiency.....	304
Anvarov Sh.D. O‘zbekiston qimmatli qog‘ozlar bozorida investitsion muhitni rivojlantirishning institutsional va infratuzilmaviy omillari.....	308
Xalmirzayev O.A. Ko‘p obyektli savdolarida Vickrey-Clark-Groves mexanizmining samaradorligi tahlili....	313
Zaidov I.I. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bozorida raqobat munosabatlarini boshqarish mexanizmlari.....	318
Rahimova N.A. Inson kapitalini boshqarishning tashkilot raqobatbardoshligiga ta’siri.....	321
Gulimboyev S.I., Rejapov X.X. O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida ta’lim kreditlarining iqtisodiy ahamiyati....	324
Bardiyev S.U. Mintaqada raqamli iqtisodiyotning iqtisodiy samaradorligini baholash: Xorazm viloyati misolida.....	328
Qulmatova S.S. Mahalla tizimida oziq-ovqat ta’minoti zanjirini IoT va sun’iy intellekt texnologiyalari asosida intellektual boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish.....	332
Aminov S.S. Mintaqada qurilish sohasidagi innovatsion rivojlanishga ta’sir etuvchi omillar.....	336
Дадабоева М.М. Кичик бизнеснинг иқтисодийёт тармоқлари бўйича ривожланиш тенденциялари.....	340
Numonjonova N.A. Kichik biznesni rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish	344
Абдулазизов А.А. Гидроэнергетика саноати ва унда ресурс тежаш жараёнларининг хорижий тажрибалари.....	348
Muradov O.U. Sanoat korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni oshirish bo‘yicha xorijiy tajribalar va ulardan foydalanish imkoniyatlari.....	352
Saidova M.J. Xorijiy mamlakatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish tajribasi va uni O‘zbekistonda qo‘llash yo‘nalishlari.....	356
Umirova G.Sh. Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida rentabellik ko‘rsatkichlari asosida iqtisodiy samaradorlikni baholash metodikasini takomillashtirish.....	360
Narmanov U.A., Nazarov J.B., Tursunaxmadov X.Sh. Moliyaviy risklarning iqtisodiy ahamiyati va uni boshqarishning zarurligi: risk tushunchasi va uning turlari.....	365
Nosirov S.N. Barqaror moliyalashtirish global bozorlari: zamonaviy tendensiyalar va rivojlanish muammolari.....	369
Farmanov J.Z., Sanetullaev A.E. Modeling of economic basis and forecast indicators of innovation transformation processes in agricultural entrepreneurship.....	373
Mirzataev S.M. Integration of digital and smart technologies in increasing the ecological resilience of the agricultural system.....	376
Kidirniyazov A.Sh. Development of artificial intelligence-based service monitoring systems for construction quality control.....	379
Абдуллаева Ш.Э. Халқаро индекслар асосида ижтимоий ҳимоя тизимини молиялаштириш.....	382
Mirjalolova M.M. Sun’iy intellekt texnologiyalarining O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik samaradorligini oshirishdagi o‘rni.....	389
Baytanov O‘.M. Sanoat korxonalarida mahsulot sifatini boshqarishning tarmoq xususiyatlari.....	394
Умаров А.Т. Особенности развития социальной сферы в Узбекистане.....	400

TO‘QIMACHILIK KORXONALARIDA AYLANMA IQTISODIYOT MODELINI JORIY ETISHNING IQTISODIY MEKANIZMLARI

ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ВНЕДРЕНИЯ МОДЕЛИ ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКИ НА ТЕКСТИЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ

ECONOMIC MECHANISMS OF IMPLEMENTING THE CIRCULAR ECONOMY MODEL IN TEXTILE ENTERPRISES

Raxmatova Feruza Yusupjanovna

Osiyo Xalqaro universiteti tayanch doktoranti,
Buxoro Innovatsiyalar universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada to‘qimachilik korxonalari faoliyatida aylanma iqtisodiyot (circular economy) modelini joriy etishning iqtisodiy mexanizmlari tadqiq etilgan. An‘anaviy “qazib ol – ishlab chiqar – tashlab yubor” (chiziqli) modelning resurs sig‘imi va ekologik zararlari tahlil qilinib, unga muqobil sifatida resurslarni qayta tiklash, chiqindilarni ikkilamchi xomashyoga aylantirish hamda mahsulot hayot siklini uzaytirishga asoslangan aylanma modelning imkoniyatlari ochib berilgan. Tadqiqot natijalari asosida to‘qimachilik tarmog‘ida aylanma iqtisodiyotni rag‘batlantiruvchi besh blokli iqtisodiy mexanizm taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: aylanma iqtisodiyot, to‘qimachilik korxonalari, yashil iqtisodiyot, resurs samaradorligi, ikkilamchi xomashyo, barqaror rivojlanish, iqtisodiy mexanizm.

В статье исследованы экономические механизмы внедрения модели циркулярной экономики в деятельность текстильных предприятий. Проанализированы ресурсоёмкость и экологический ущерб традиционной (линейной) модели «добыть – произвести – выбросить», в качестве альтернативы раскрыты возможности циркулярной модели, основанной на восстановлении ресурсов, превращении отходов во вторичное сырьё и продлении жизненного цикла продукции. По результатам исследования предложен пятиблочный экономический механизм стимулирования циркулярной экономики в текстильной отрасли.

Ключевые слова: циркулярная экономика, текстильные предприятия, зелёная экономика, ресурсная эффективность, вторичное сырьё, устойчивое развитие, экономический механизм.

The article examines the economic mechanisms of implementing the circular economy model in the operation of textile enterprises. The resource intensity and environmental damage of the conventional (linear) “take–make–dispose” model are analysed, and as an alternative the opportunities of a circular model based on resource recovery, conversion of waste into secondary raw materials and extension of the product life cycle are revealed. Based on the research findings, a five-block economic mechanism for stimulating the circular economy in the textile sector is proposed.

Keywords: circular economy, textile enterprises, green economy, resource efficiency, secondary raw materials, sustainable development, economic mechanism.

Jahon iqtisodiyotida ishlab chiqarish hajmining o‘ssishi bilan birga tabiiy resurslarga bo‘lgan bosim va ekologik xavflar ham kuchaymoqda. To‘qimachilik sanoati bu jihatdan eng resurs sig‘imli va eng ko‘p chiqindi chiqaruvchi tarmoqlardan biri hisoblanadi. Ellen MacArthur jamg‘armasi ma’lumotlariga ko‘ra, jahon to‘qimachilik va moda sanoati global issiqxona gazlari chiqindilarining 2–8 foiziga hissa qo‘shadi, foydalanuvchi qo‘lidan chiqqan kiyim-kechakning 80 foizdan ortig‘i qayta ishlanmasdan poligonlarga ko‘miladi yoki yoqib yuboriladi [3]. Bunday holat tarmoqning

an’anaviy “qazib ol – ishlab chiqar – tashlab yubor” (take–make–dispose) chiziqli modeliga asoslangani bilan izohlanadi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda to‘qimachilik sanoati iqtisodiyotning yetakchi va eksportbop tarmoqlaridan biriga aylandi. Statistika agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 10,7 foizga o‘sgan [6]. Shu bilan birga tarmoqning suv, energiya va xomashyo sarfining yuqoriligi, chiqindilar hajmining ko‘pligi uning barqarorligini ta’minlash uchun yangi iqtisodiy yondashuvlarni taqozo etmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi PQ-4477-son qarori bilan tasdiqlangan “2019–2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” hamda “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi ushbu yo‘nalishdagi islohotlarning huquqiy asosini tashkil etadi [1; 2]. Mazkur sharoitda to‘qimachilik korxonalarida aylanma iqtisodiyot modelini joriy etishning iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa sanaladi.

Aylanma iqtisodiyot g‘oyasining nazariy ildizlari tabiiy resurslar iqtisodiyotiga oid klassik tadqiqotlarga, shuningdek V.Stahelning “ishlash iqtisodiyoti” (performance economy) konsepsiyasiga borib taqaladi [5]. Stahel aylanma iqtisodiyotni resurslarni iloji boricha uzoq muddat iqtisodiy aylanmada saqlab turish, mahsulot va materiallarning qiymatini yo‘qotmaslikka qaratilgan tizim sifatida talqin etadi. To‘qimachilik tarmog‘iga nisbatan bu yondashuv Ellen MacArthur jamg‘armasining “Yangi to‘qimachilik iqtisodiyoti” (A new textiles economy) hisobotida atroflicha asoslangan bo‘lib, unda kiyim-kechakdan ko‘proq foydalanish, ularni qayta ishlab chiqarishga moslab loyihalash hamda xavfsiz, qayta tiklanadigan va ikkilamchi xomashyodan foydalanish tamoyillari ilgari surilgan [3].

O‘zbek iqtisodchi olimlaridan A.Vaxabov, Sh.Xajibakiyev va boshqalar “Yashil iqtisodiyot” darsligida yashil iqtisodiyotga o‘tishning nazariy-uslubiy asoslarini, resurs tejamlorligi va barqaror o‘tish masalalarini yoritib berishgan [4]. Biroq mavjud tadqiqotlarda aylanma iqtisodiyot mexanizmlari ko‘proq umum-iqtisodiy darajada ko‘rib chiqilgan bo‘lib, aynan to‘qimachilik korxonalari miqyosida ularni amalga oshirishning iqtisodiy mexanizmlari yetarlicha tizimlashtirilmagan. Mazkur maqola shu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

Tadqiqotda abstrakt-mantiqiy fikrlash, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv hamda statistik ma’lumotlarni umumlashtirish usullaridan foydalanilgan. Chiziqli va aylanma modellar qiyosiy tahlil asosida solishtirilib, to‘qimachilik korxonasi darajasidagi iqtisodiy mexanizmlar tarkibiy elementlarga ajratilgan holda o‘rganildi.

Chiziqli model to‘qimachilik korxonasida xomashyo (paxta tolasi, sintetik tola), suv, energiya va kimyoviy moddalardan bir martalik foydalanishga asoslanadi: resurs mahsulotga, mahsulot esa oxir-oqibat chiqindiga aylanadi. Aylanma model esa resurs oqimini yopiq tsiklga aylantirishni nazarda tutadi. Ikki modelning asosiy farqlari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Chiziqli va aylanma iqtisodiyot modellarining qiyosiy tahlili

Mezon	Chiziqli model	Aylanma model
Resursdan foydalanish	Bir martalik, “qazib ol – ishlab chiqar – tashlab yubor”	Ko‘p martalik, yopiq tsikl
Chiqindiga munosabat	Yakuniy chiqindi, ko‘mish yoki yoqish	Ikkilamchi xomashyo, qayta ishlash
Mahsulot loyihasi	Qisqa xizmat muddati	Uzoq xizmat, ta’mirlash va qayta ishlashga moslangan
Iqtisodiy qiymat	Resurs sarfi bilan tugaydi	Qiymat aylanmada saqlanib qoladi
Ekologik ta’sir	Yuqori: chiqindi va ifloslanish	Past: resurs va chiqindi kamayadi

Manba: Muallif tomonidan tuzildi.

Tahlil natijalari to‘qimachilik korxonalarida aylanma iqtisodiyotni joriy etishning besh blokli iqtisodiy mexanizmini ajratish imkonini berdi:

1. Resurs samaradorligi va toza ishlab chiqarish mexanizmi. Suv, energiya va kimyoviy moddalar sarfini kamaytiruvchi texnologiyalar (suvni qayta aylantirish, energiya tejovchi uskunalar) korxonaning o‘zgaruvchan xarajatlarini pasaytiradi va ayni paytda ekologik yukni kamaytiradi.

2. Ikkilamchi resurslar bozori mexanizmi. To‘qimachilik chiqindilari (qiyqindi, brak mahsulot, ishlatilgan to‘qimachilik) yig‘ish, saralash va qayta ishlash tizimi orqali ikkilamchi xomashyoga aylantiriladi. Bu xomashyo importiga bog‘liqlikni kamaytiradi va yangi qo‘shilgan qiymat manbasini yaratadi.

3. Aylanma biznes-modellar mexanizmi. Mahsulotni qayta sotish (resale), ijaraga berish (rental), ta‘mirlash (repair) va qayta ishlab chiqarish (remaking) modellari mahsulotning hayot siklini uzaytiradi hamda daromad oqimini diversifikatsiya qiladi [3].

4. Ishlab chiqaruvchining kengaytirilgan mas‘uliyati (EPR) mexanizmi. Ishlab chiqaruvchi mahsulot iste‘mol qilingandan keyingi yig‘ish va qayta ishlash xarajatlarining bir qismini o‘z zimmasiga oladi, bu esa loyihalash bosqichidayoq qayta ishlashga moslikni rag‘batlantiradi.

5. Yashil moliyalashtirish mexanizmi. Yashil kreditlar, imtiyozli soliq va bojxona rejimlari hamda davlat-xususiy sheriklik aylanma loyihalarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlaydi.

Mazkur mexanizmlar O‘zbekiston to‘qimachilik korxonalari uchun bir vaqtning o‘zida xarajatlarni optimallashtirish, eksport raqobatbardoshligini oshirish (xalqaro bozorlarda ekologik talablar kuchaymoqda) va ekologik barqarorlikni ta‘minlash imkonini beradi.

O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatining so‘nggi yillardagi jadal rivojlanishi — paxta-to‘qimachilik klasterlari tashkil etilishi va tayyor mahsulot ulushining ortishi — aylanma iqtisodiyot mexanizmlarini joriy etish uchun qulay zamin yaratadi. Klaster modeli xomashyo yetishtirishdan tayyor mahsulot ishlab chiqarishgacha bo‘lgan bosqichlarni yagona tizimga birlashtirgani bois, ishlab chiqarish chiqindilarini yig‘ish, saralash va qayta ishlash jarayonlarini ham klaster doirasida tashkil etish iqtisodiy jihatdan samarali hisoblanadi. Bu esa ikkilamchi resurslar bozorini shakllantirish va yopiq tsikli ishlab chiqarishga o‘tish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Shu bilan birga, aylanma iqtisodiyotga o‘tish bir qator to‘siqlar bilan bog‘liq. Birinchidan, ikkilamchi xomashyo yig‘ish va saralash infratuzilmasi hali yetarlicha rivojlanmagan. Ikkinchidan, qayta ishlash texnologiyalariga dastlabki investitsiya xarajatlari yuqori. Uchinchidan, korxonalar va iste‘molchilar o‘rtasida aylanma model afzalliklari bo‘yicha xabardorlik darajasi past. Xalqaro amaliyot shuni ko‘rsatadiki, aniq belgilangan iqtisodiy rag‘batlar (soliq imtiyozlari, yashil kreditlar) hamda me‘yoriy talablarning uyg‘unligi aylanma modelga o‘tishni sezilarli darajada tezlashtiradi.

Aylanma iqtisodiyot mexanizmlarini joriy etish to‘qimachilik korxonalarining xalqaro raqobatbardoshligini oshirishda ham strategik ahamiyat kasb etadi. Global brendlar va yetakchi eksport bozorlari yetkazib beruvchilarga nisbatan barqarorlik va aylanma tamoyillarga rioya qilish bo‘yicha talablarni kuchaytirmoqda. Shu sababli aylanma modelga o‘tish nafaqat resurs tejash vositasi, balki eksport bozorlarida o‘rin saqlab qolishning zaruriy sharti sifatida ham qaralishi lozim.

Tadqiqot natijalari to‘qimachilik korxonalarida aylanma iqtisodiyot modeliga o‘tish nafaqat ekologik, balki iqtisodiy jihatdan ham maqsadga muvofiqligini ko‘rsatadi. Quyidagi takliflar ishlab chiqildi: birinchidan, korxona darajasida resurs samaradorligi va toza ishlab chiqarish dasturlarini joriy etish; ikkinchidan, hududiy ikkilamchi xomashyo yig‘ish va saralash infratuzilmasini shakllantirish; uchinchidan, aylanma biznes-modellarni rag‘batlantiruvchi soliq-bojxona imtiyozlari tizimini ishlab chiqish; to‘rtinchidan, yashil moliyalashtirish instrumentlarini kengaytirish. Ushbu chora-tadbirlar majmui “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan yashil iqtisodiyotga o‘tish vazifalariga muvofiq keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrda “2019–2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4477-son Qarori. – lex.uz.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni. – lex.uz.
3. Ellen MacArthur Foundation. A new textiles economy: Redesigning fashion’s future. – 2017.
4. Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X. va boshqalar. Yashil iqtisodiyot: Darslik. – Toshkent: “Universitet”, 2020. – 262 b.
5. Stahel W.R. The Circular Economy: A User’s Guide. – London: Routledge, 2019.
6. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma’lumotlari. – stat.uz.

UDK: 339.138:745

**MILLIY HUNARMANDCHILIK MAHSULOTLARINI BRENDLASH VA BOZORDA
POZITSIYALASHNING STRATEGIK YONDASHUVLARI**

**СТРАТЕГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К БРЕНДИНГУ И РЫНОЧНОМУ
ПОЗИЦИОНИРОВАНИЮ ПРОДУКЦИИ НАРОДНЫХ ПРОМЫСЛОВ**

**STRATEGIC APPROACHES TO BRANDING AND MARKET POSITIONING OF
NATIONAL CRAFTS PRODUCTS**

Ergasheva Aziza Farmonovna

Buxoro davlat universiteti doktoranti,

Buxoro Innovatsiyalar universiteti dotsenti, i.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya

Maqolada milliy hunarmandchilik mahsulotlarini brendlash va bozorda pozitsiyalarning strategik marketing yondashuvlari tadqiq etilgan. Brend qiymati (brand equity) hamda iste’molchiga asoslangan brend kapitali konsepsiyalari hunarmandchilik mahsulotlarining o‘ziga xos xususiyatlariga moslab tahlil qilingan. Mahsulotning madaniy meros va hududiy o‘ziga xoslikka asoslangan qiymat taklifi, shuningdek geografik ko‘rsatkichlardan brendlash vositasi sifatida foydalanish imkoniyatlari ochib berilgan. Tadqiqot natijalari asosida milliy hunarmandchilik brendlarini shakllantirish va pozitsiyalarning bosqichli modeli taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: milliy hunarmandchilik, brendlash, bozorda pozitsiyalar, brend qiymati, geografik ko‘rsatkich, qiymat taklifi, strategik marketing.

В статье исследованы стратегические маркетинговые подходы к брендингу и рыночному позиционированию изделий национального ремесла. Концепции стоимости бренда (brand equity) и потребительского капитала бренда проанализированы применительно к особенностям ремесленной продукции. Раскрыты ценностное предложение, основанное на культурном наследии и территориальной самобытности, а также возможности использования географических указаний как инструмента брендинга. По результатам исследования предложена поэтапная модель формирования и позиционирования брендов национального ремесла.

Ключевые слова: национальное ремесло, брендинг, рыночное позиционирование, стоимость бренда, географическое указание, ценностное предложение, стратегический маркетинг.

The article examines strategic marketing approaches to the branding and market positioning of national handicraft products. The concepts of brand equity and customer-based brand equity are analysed in relation to the specific features of handicraft goods. The value proposition based on cultural heritage and territorial identity is revealed, as well as the opportunities of using geographical